

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MILLIY MUSIQANI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Mirzayev Anvar Furqat o'g'li

Uz.D.S.M.I vokal kafedrası o'qituvchisi

Ushbu maqolada: milliy musiqaning hayotimizdagi ahamiyati, uni yoshlar qalbiga jo qilish, o'tmishdagi ota-bobolarimiz ijro namunalarini o'rganish va bunday mas'uliyatli ish biz pedagoglar zimmasida ekanligi haqida bayon etilgan.

“An'ana - o'tmishning yakuni emas, balki yangi zamoni ilhomlantiruvchi jonli kuchdir”

I.Stravinskiy XX asr

O'zbekiston Respublikasi madaniyati taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon musiqa san'ati madaniyati ilmiy rivojlanish texnik bazasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy manaviy ruhda tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirish hamda musiqani o'rganishning o'rne va ahamiyatini tushintirish, ushbu fanning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Musiqa o'qituvchisi nafaqat o'quvchi yoshlarga musiqa va qo'shiq o'rgatuvchi muallim, balki yosh avlodni musiqa olamiga yetaklovchi, go'zallikka undovchi, yoshlarning estetik didini yuksaltiruvchi, ularning ma'naviyatini boyituvchi, musiqa sehrini his ettira oluvchi mohir ustoz murabbiy bo'lmog'i lozim.

Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'lkamizda uzoq yillar davomida to'plangan boy madaniy meros xalk, millatni tarbiyalashda, milliy g'oya, milliy tafakkur, milliy mafkuraning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qayd etish lozimki, mavjud milliy qadriyatlar eng avvalo tarbiya, jamiyatni ijtimoiy sog'lomlashtirish kabi muhim vazifalarga xizmat qildi. Tarixdan ma'lumki, ijrochilikda cholg'ular jo'rligida qo'shiq ijro etish, raqsga jo'r bo'lish xalqimizning ommaviy bayram va marosimlarida keng qo'llanilgan. XX asrning o'rtalariga kelib cholg'ulardan turli guruhlarda va qo'shiqlarni ham to'da bo'lib ijro etishga e'tibor kuchaydi. Xalq



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ogʻzaki ijodiyoti tarmogʻidan tortib to professional sanʻat yoʻnalishlarida bu jarayon keng qoʻllanila boshlandi. Xalq musiqasi ijrochiligi amaliyotida turli tarkibdagi xalq cholgʻu va raqs ansambllari faoliyati keng ommalashdi. Taʻlim muassasalarida, ijrochilik amaliyotida alohida cholgʻulardan oʻziga mutanosibva nomdosh toʻdalar tuzish tendensiyasi avj ola boshladi. Dutorchilar ansambli, changchilar ansambli, doyrachilar ansambli hattoki 1960 yilda Sulaymon Taxalov boshchiligida 12 ta cholgʻuchilardan iborat – udchilar ansambli yoki ustoz sozanda Turgʻun Alimatov sinfida tanburchilar ansambli ham ijrochilikning yangi-yangi qirralarini namoyish etishga muvassar boʻldi. Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida kamonli cholgʻular, faqat gʻijjakchilar kamer ansambli yoki mezrobli cholgʻular kamer ansambli tashkil etilib, koʻp yillardan beri oʻz faoliyatini munosib tarzda olib bormoqdalar. Bunga yorqin misol qilib, oʻz davrida mashhur boʻlgan professor A.Odilov rahbarligidagi changchilar ansamblini, hozirgi davrga kelib juda katta muvaffaqiyatlar bilan oʻz faoliyatini davom ettirib kelayotgan professor F.Abdurahimova rahbarligidagi «Soʻgʻdiyona» xalq cholgʻulari kamer orkestrini koʻrsatish oʻrinlidir. Har bir jamoa oʻz ijro uslubi hamda faoliyati bilan yetakchi jamoalar sifatida qayd etiladi. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qoʻllaniladi. Qolaversa, sodda qilib aytganda ansambl bir katta oiladir. Musiqa ilmiga binoan ansamblidagi har bir sozanda doira sabogʻidan albatta xabardor boʻlishi shart, shundagina ijro etilayotgan asar ravon, mukammal hamda uygʻunlik jozibasiga ega boʻladi.

Oʻrta asrlarda yashab ijod etgan Sharqning taniqli allomasi Yoqub Ibn Isxoq Kindiyning, musiqa inson ruhiga taʻsiri ustida koʻp shugʻullanganligi va bu sohada anchagina muvaffaqiyatlarga erishganligini aytib oʻtsak foydadan xoli boʻlmaydi. Uning yozishicha: - «Kuylar bilan gullar oʻrtasida qandaydir oʻxshashlik bor. Gullardan taraladigan xushboʻy hidlar ovozsiz musiqaga oʻxshaydi. Hidlar musiqa sadolariga oʻxshab, kishi ruhini koʻtaradi, kuchiga kuch qoʻshadi». Oʻquv jarayoniga mos hamda talabalarning ijro saviyasini inobatga olgan holda quyidagicha uslub asosida ish yuritish maqsadga muvofiq boʻladi. Unga koʻra avvalo ansambl qatnashchilarining maʼlum guruhlariga boʻlish va ularni joʻrnavezlik ijro amallariga oʻrgatish lozim. Guruhlar bilan ishlash jarayonida asarni mukammal oʻzlashtirgandan soʻng, jamoa boʻlib ansambl sifatida birlashish yaxshi natijalarni olib keladi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim tomoni shundaki, talabalar imkoniyatiga mos, hamda ruhiyatiga xos ijro dasturini tanlashdir. Soʻngra, tanlagan asarni sozandalarga oʻrgata borishda talabalarning darsga qatnashishi jarayonini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

muntazam ravishda kuzatib borish umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biri sifatida gavdalandi. Ming yilliklar davomida shakllangan tarbiya tizimi, individual, yakka tartibdagi va ijtimoiy tarbiya usullari Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy taraqqiyotida Hal qiluvchi rol o'ynaydi, hech shubhasiz, bunday sifatlar o'zbek xalqi mentalitetining mohiyatini tashkil etadi. Ajdodlarimiz to'plagan hayotiy tajribalar, xususan yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanilgan usul va vositalari, o'ziga xos urfodat va an'analari keyinchalik bu zaminda yetishib chiqqan buyuk allom olimlarning pedagogik qarashlarida sayqallanib, ilmiy tus oldi, noyob ko'lyozmalarda muhrlanib, ma'naviy merosga aylantirildi. Ushbu merosni o'rganish, yangi sifatlar bilan boyitib pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish jamiyatimizning hozirgi taraqqiyoti, undagi ma'naviy yuksalish, tarixiy xotira, an'ana va qadriyatlarning tiklanishi jarayonida - eng dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik tizimda an'anaviylikka bu kabi urg'u berilishi bejiz emas, zero, an'anaviy tamoyillar zamonaviy unsurlarni chuqurroq anglashda muhim vosita bo'lib, yosh avlodning ajdodlarimiz merosini o'zlashtirib, milliy -ma'naviy negizda tarbiyalanishi esa jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik davrida ma'naviy barkamol insonni voyaga yetkazish va tarbiyalash masalasi ijtimoiy masalalarni alohida-alohida olib o'rganuvchi gumanitar fan va sohalar oldiga konkret va aniq vazifalar yuklaydi. Inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan milliy musiqiy madaniyat va uning xalqimiz orasida tarkib topgan an'anaviy ko'shiqchilik namunalari hozirgi zamon kelgusi ma'naviyatida tutgan o'rnini tadqiq etish katta ilmiy ahamiyatga ega.

Zero, qudratli kuchga ega bo'lgan musiqa o'z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi. Shu boisdan musiqani xalqning, millatning qalbi deb bejiz aytmaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Azizboyev S. "An'anaviy cholg'u ansambli"
2. Z. Egamberdiyeva, Z. Egamberdiyev. « An-Kindiy musiqasi» Sovet O'zbekistonisan'ati 10/1978.
3. Alimbayeva ,M.Axmedov "O'zbek xalq sozandalari" Toshkent
4. A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi, «Fan» 1993yil.
5. Begmatov S, Qodirov N. "Ansabl sinfi"
6. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

7. D.Karimova “Musiqiy pedagogik maxorat asoslari” T.TDP

8. G'.Qo'chqorov “O'zbek milliy cholg'ularini o'rganaylik”Toshkent

9.G'Qo'chqorov, A.Umarov “Ansambl cholg'ulari” “Musiq” nashriyoti.Toshkent 2003

10. I.Akbarov. «Musiq lo'g'ati». Toshkent-1987 yil.

11. Matyoqubov.M “An'anaviy cholg'u ijrochiligi uslubiyoti



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES